

“TUMUR TUZUKLARI” DAGI IJTIMOIY – FALSAFIY
G’OYALAR

ASQAROV DIYORBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI.

TDTr.U talabasi.

Salimov Baxriddin Lutfullaevich.

Ilmiy raxbar.

Annotatsiya: Amir Temur umri davomida hokimiyatda vijdonli rahbarlarni bo‘lishini orzu qilgan va bu orzuni amalga oshirgan. Tuzuklarda ta’kidlanishicha, rahbar qilib tayinlangan odamlarni ortiqcha maqtab yuborish, siylash va taltaytirib yubormaslik lozim. Avvalo, nazari past, johil odamlarni vazirlik mansablariga tayinlamaslik kerak.

Kalit so‘zlar: Hokimiyat,adolat,raxbarlik,mansab,boshqaruv,tenglik.

Abstract: During his lifetime, Amir Temur dreamed of having honest leaders in power, and he fulfilled this dream. According to the regulations, it is necessary not to excessively praise, honor and humiliate the people appointed as leaders. First of all, people with low vision and ignorance should not be appointed to ministerial posts.

Key words: Power, justice, leadership, career, management, equality.

“Temur tuzuklari” da falsafiy masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu asarning qimmati benihoya ulug‘dir. Ba’zida u «Temurning aytganlari», «Temur haqida xotiralar», «Tuzuki Temuriy» deb ham atalib kelingan. Asar dastlab eski o‘zbek (Chig‘atoy-turkiy) tilida yozilgan bo‘lib, sharqshunos olimlarning jumladan, N.D.Mikluxo-Maklay, Ch. Ryo, X. Ete, Ch. A. Storiylarning fikricha, uning bir nusxasi XVII asrgacha Yaman hukmdori Ja’far podshohning kutubxonasida saqlangan. Hozir esa bu asar dunyoning ko‘pgina tillariga: ingliz, fransuz, fors, urdu, rus va o‘zbek tillariga tarjima qilingan. Hozirgi o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi fors va arab tili bilimdoni marhum

Alixonto‘ra Sog‘uniy tomonidan bajarilgan. Unga sharqshunos olim Habibullo Karomatov o‘zining jiddiy hissasini qo‘sghan va kitob holiga keltirib nashr ettirgan.

Ta’kidlash kerakki, «Tuzuklar»ning Amir Temur tomonidan yozilganligi yoki yozilmaganligi haqida tortishuvlar bo‘lgan. Jumladan, ingliz sharqshunosi E. G. Braun bilan rus sharqshunos olimi V. V. Bartold «Tuzuklar»ning Amir Temur tomonidan yozilganligiga shubha qiladilar. Ammo, akademik B. Ahmedovning fikriga ko‘ra asarni sinchiklab o‘rganganda, hamda Amir Temurga bag‘ishlab o‘sha vaqtdayoq yozilgan asarlar tahlil qilinganda, aynan, Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» lariga solishtirganda yuqoridagi da’volar asossiz ekanligi ma’lum bo‘ladi. Ingliz sharqshunos olimi A. Storiy ham shu fikrda bo‘lib, «Tuzuklar» Amir Temur tomonidan yozilgan, deb ochiq aytadi. Demak, shuni aytish kerakki, o‘z davrining ilm va fani, olimu fuzalolari qadrlagan, jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib, uni rivojlanishini ta’minlagan kishini asar yoza olishiga shubha qilish o‘rinsizdir.

«Temur tuzuklari» taniqli asar. Uning qo‘lyozma nusxalari jahondagi ko‘pgina mamlakatlarning, jumladan: Hindiston, Eron, Angliya, Daniya, Fransiya, Rossiya, Germaniya, Armaniston, O‘zbekiston kutubxonalarida bor. Bu asar asosan Amir Temurning tarjimai holi, hayoti, davlati va armiyasi to‘g‘risida, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy sharoit haqidagi manbadir. U avlodlarga qoldirilgan muhim siyosiy, iqtisodiy, harbiy va falsafiy qo‘llanmadir. Asarda 1342-1405 yillardagi muhim ma’lumotlar keltiriladi. Bu ma’lumotlarning aksariyat qismi insonning ma’naviy-falsafiy xislatlarini yoritish va hayotga tatbiq etishga qaratilgan. U ikki maqoladan iborat: birinchisida jahongirning o‘z davlatini tashkil etish va uni mustahkamlash, qudratli qo‘sish tuzish, qonun va rejalaridan iborat bo‘lsa, ikkinchi maqolada kuchli feodal davlatni barpo etish haqidagi kengashlar, hamda amalga oshirilgan ishlar haqidadir.

Amir Temurning asaridan sezilib turadiki, o‘zi tanlagen va tayinlagan kishilarning axloqiy xislatlariga ko‘proq diqqatni tortgan. Jumladan Sohibqiron fikricha, vazirlar 4 sifatga ega bo‘lishi kerak:

1. Asillik, toza nasllik va ulug‘vorlik;
2. Ko‘pni ko‘ra oladigan, tez xulosa qiladigan, aqlu-farosatlilik;
3. Insonparvar, xalq ahvolini, sipohlarni biladigan va g‘amxo‘rlik ko‘rsata oladigan;
4. Chidamlı, sabr-toqatlı, xushmuomalalı, muloyim.

Ko‘rib turibmizki, bu axloqiy xislatlar Amir Temur tomonidan yuqori baholangan va ularga amal qilingan.

Butun umri davomida hokimiyatda vijdonli rahbarlarni bo‘lishini orzu qilgan va bu orzuni amalga oshirgan. Tuzuklarda ta’kidlanishicha, rahbar qilib tayinlangan odamlarni ortiqcha maqtab yuborish, siylash va taltaytirib yubormaslik lozim. Avvalo, nazari past, johil, tagi past odamlarni vazirlik mansablariga tayinlamaslik kerak. Amir Temur ta’kidlab aytadiki: «Qaysi vazir g‘iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o‘ziga yoqmagan kishilarni yo‘qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasli va zoti past, hasadchi, gina-kek saqlovchi, qora ko‘ngilli odamlarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin, (chunki) buzuqi, qora ko‘ngilli, zoti past, odam vazirlik qilsa, davlatu saltanat tez fursatda zavol topadi». Amir Temur ayniqsa, o‘z manfaatini o‘ylaydigan ochko‘z, manmanlik va ziqnalik qiladigan, mol-mulkka berilgan, o‘zlarining eng yaqin kishilarini unutib ularga qaysarlik bilan ish tutadiganlarni juda yomon ko‘rgan. Bu haqda «Tuzuk»larda shunday deyiladi: «Qaysi bir sipohiy tuz haqi va vafodorlikni unutib, xizmat paytida o‘z sohibidan yuz o‘girib, huzurimga kelgan bo‘lsa, unday odamni o‘zimga eng yomon dushman deb bildim. Chunonchi, To‘xtamishxon bilan bo‘lgan urushda uning amirlari menga har turli xabar va shikoyatlar yozib, o‘z hukmdori, ya’ni mening dushmanim bo‘lmish To‘xtamishxon bergen tuz haqini unutdilar, vafodorlik va haq-huquqni bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘yib, huzurimga panoh istab kelganlari uchun ularni la’natladim, o‘zimga «bular o‘z hojasiga vafo qilmagach, menga qilarmidi?-deb o‘yladim». Aytish lozimki, bu fikrlar yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan, yuksak axloqli, shaxs tomonidan aytilishi mumkin, xolos. Amir Temur o‘zining shu xislatlari orqali xalqning barcha tabaqalari o‘rtasida hurmat

qozongan. Jumladan «Tuzuk»larda bu haqda shunday fikrlar bor: «Men o‘zimning ikromiyatim va rahmdilligim tufayli eng past tabaqa kishilarning ham, hatto gadolarning rahmatiga sazovor bo‘ldim. Men butun jahdim bilan bu tabaqadagi kishilarning ahvolini osonlashtirishga harakat qildim».

«Temur tuzuklari»dagi falsafiy g‘oyalar inson, insonning axloqi bilan bog‘liq, desak xato bo‘lmaydi, sababi jahongirning o‘zi o‘ta kamtar inson bo‘lgan. O‘z davrida qurdirgan barcha madrasayu, maqbara, qal‘a-qasrlar, bog‘-rog‘lar, masjidlarni o‘z nomi bilan emas balki, islom rahnamolari, qavmu-qarindoshlari va o‘g‘il-qizlari nomlari bilan atagan, ularning nomlarini bergen.

Amir Temurning farzandlari ham hokimiyat ishlariga aralashganlar. Ularga ham ko‘p ming sonli qo‘sishinlar berilib, turli viloyatlarga bosh etib tayinlangan edilar. Ular otalari bilan maslahatlashib ish yuritganlar. Zarur bo‘lsa otasi bilan birga, o‘z qo‘sishinlarini olib kelib jangga kirganlar va o‘z otasining sultanati va davlatini hurmatini joyiga qo‘yanlar. Farzandlar noto‘g‘ri yo‘lga qadam qo‘yanlarida esa ota ularni jazolagan, tanbeh bergen. Amir Temurning shaxsiy faoliyati barcha kishilar uchun turli sohalar bo‘yicha namuna bo‘la oladi. Ayniqsa, u kishining insonga, vatanga, xalqqa, o‘z oilasi va do‘stlariga bo‘lgan munosabatlarida bu jarayon yaqqol ko‘zga tashlanadi. Amir Temur hali, davlat tepasiga kelmasdanoq vatanni o‘ylash, vatan ravnaqiga befarq bo‘lmaslik, dushmanlar tomonidan o‘tkazilayotgan tazyiq va talon-torojliklarni oldini olish uchun intilish xislatlariga ega edi.

Ba’zida Amir Temurning «qonxo‘rligi» haqida fikr yuritganlar. Bu bizningcha mutlaqo o‘rinsizdir. Aslida, Amir Temur adolat bilan ish yuritar ekan, shu adolatni yerga uradigan, jamiyat manfaati bilan hisoblashmaydigan kishilar bilan haqiqatda ham murosasiz bo‘lgan. Bu fikrning kelib chiqishida Rui Gonzales de Klavixoning bir hikoyasi sabab bo‘lgan bo‘lsa ajab emas.

Amir Temur o‘zining «Besh yillik yurishi» vaqtida Turkiya sharqida safarda bo‘lgan. Bu safar paytida Suriyaga o‘tilayotganda, Suriya bilan Turkiya oralig‘idagi yerlarda ko‘chmanchilik qilib yuruvchi «oq tatar» nomli elatga to‘g‘ri kelingan. To‘satdan jang boshlanib, tatarlar yengiladi va asrga olinadilar.

Natijada, ular Eronning shimolidagi Damgon viloyatiga ko‘chirilib, bu yerlarni ular yordamida obodonlashtirish nazarda tutiladi, sababi, u yerning aholisi kam bo‘lgan. Ammo, oq tatarlar u yerlarga kelganlaridan so‘ng yana avvalgiday itoat qilmaydilar. O‘zaro birlashib, asta-sekin g‘arbgan, ya’ni o‘z yerlariga qayta boshlaydilar. Yo‘l - yo‘lakay shahar va qishloqlarni talon-toroj qiladilar. Vayronalarga aylantiradilar. Natijada Amir Temurning sipohlarini jahli chiqib, oq tatarlarni qirib tashlaydilar. To‘g‘ri, bu jangda minglab kishilar halok bo‘ladi, lekin bu-sababsiz bo‘lmagan-ku! Demak, qonxo‘r deyilishi asossiz bir ertakdir, xolos. Agar biz Amir Temurni boshqa sarkardalar, Napoleon, Gitler, Stalin, Frunzelar bilan qiyoslab o‘rganadigan bo‘lsak, unda ular qilgan dahshatlarni qanday baholash mumkin!

REFERENCES

1. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Севинч Акмаловна Тоғаева. ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 52-55.
2. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Шавкатова Сарвинаозхон Лазиз қизи. РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ИСТОРИИ ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 60-63.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Ўралова Дилноза Орифбай қизи. РОЛЬ ФИЛОСОФИИ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 56-59.
4. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдусатторов, Фатхулла Хайрулла Ўғли, & Ғанибоев, Дилмурод Анваржон Ўғли (2023). ТЕНГЛИК ВА БАХТ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРДА ТУТГАН ЎРНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 16-21.

5. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдухоликов, Диёрбек Сайрбек Ўғли, & Комилов, Фарходжон Абдусамин Ўғли. (2023). ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ШАКЛАНТИРУВЧИ ВА ТАРТИБГА СОЛИБ ТУРУУВЧИ МУҲИМ ОМИЛЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 41-46.
6. Салимов , Б. Л., Файзиев , С. Ф., & Қурамбаев , Ж. (2022). ЕВРОПА ОЛИМЛАРИНИНГ АСАРЛАРИДА ИНСОН ВА ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗАРО АЛОҚАДОРЛИГИНИНГ ТАХЛИЛИ. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 44–50.